

## BOLALARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Ahmedjonov Akmal Mo'minovich

Ahmedjonova Muhabbat Zoirovna

Mo'minova Fotima Avazbek qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, nutqiy kompetensiyanı shakllantirish orqali bolalarning aqlan rivojlanishini hamda bilimlarini oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish alohida ta'kidlab o'tilgan.

**Annotatio:** In this article, it is envisaged to radically improve the conditions for the all-round intellectual, aesthetic and physical development of children, to increase the intellectual development and knowledge of children through the formation of speech competence.

**Kalit So'zlar:** Nutq kamchiligi, kompetentsiya, nutqiy kompetensiya, ta'lif, tarbiya

**Keywords:** Speech deficiency, competence, speech competence, education, training

Har qaysi mamlakatda olib boriladigan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida, avvalambor, ta'lif tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'limi va tarbiyasi deb javob beraman", deya aytgan e'tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o'sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo'lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko'rsatadi. Bolalarning kattalar bilan muloqot qilishining har bir jihatni uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihatni u yoki bu darajada va o'z holicha o'quvchilarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Bola shaxsining har tomonlama intellektual ham jismonan, ham ma'nana rivojlanishida nutqning ahamiyati katta. Agar rivojlanayotgan bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, unda boladagi jismoniy va ruhiy rivojlanishdan orqada qoladi. Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lif-tarbiyaga bog'liq. Lekin ba'zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanishi sustlashadi, orqada qoladi. Shu sababli bolalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish uning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Kompetensiya tushunchasi u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya so'zi (lotincha "compete" - erishyapman, munosibman, loyiqliman) - fan bo'yicha egallangan

nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyatda qo'llay olishdir.

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali bolalarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ma'lumki, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ikki turga ajratiladi: tayanch va fanga oid kompetensiyalar. Ayrim manbalarda esa kompetensiyalarning quyidagi 3 turi tasniflangan: 1.tayanch kompetensiyalar; 2. umumiy (predmetli) kompetensiyalar; 3. xususiy kompetensiyalar. O'quvchi shaxsining umumiyligi rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan, kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi: 1. tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); 2. gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish 3. o'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish; 4. yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ishlash qog'ozlarini yuritishni bilish). bolalar nutqiy kompetensiyalarining shakllanganligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi: bola nutqini, video va audiomatlarni (multimedia ilovalari) va topshirirlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhabatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga riosa qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi; so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini, bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi; x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi; bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi; mash'al, ma'qul, ta'llim, jur'at, ta'zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi; lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlli diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi. Kompetensiya hech qachon to'g'ridan-to'g'ri tashxis qo'yish va baholash mumkin emas, balki har doim uning samaradorligi nuqtai nazaridan bilvosita anglash mumkin. Zamonaviy ta'limdagi kompetensiya asoslangan yondashuv - olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga e'tiborni qaratish usulidir.

Yurt taraqqiyoti yoshlarning kelgusida qanday shaxs bo'lib kamol topishiga uzviy bog'liqdir. Farzandlarimizning kelajagi poydevori bo'l mish boshlang'ich ta'lim tizimini

yanada isloh qilish esa bu boradagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiyl o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda esa, avvalo o'qituvchi o'zining egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega bo'lmog'i lozim. Shundagina u pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil eta oladi. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.Y.Ayupova "Logopediya" O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati nashriyoti Toshkent – 2019.
2. M.Y.Ayupova, Sh.D.Aripova "Logopediya-to'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz" O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati nashriyoti Toshkent –2020
3. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika" Toshkent 2018.
4. S.V.Raxmanova "Korreksion pedagogika va logopediya" Toshkent 2007.